



**TANQIDIY FIKRLASH – ZAMONAVIY JAMIYATDA MUHIM IJTIMOIY
KO'NIKMA**

Pulatova Farida Azamovna

SamDCHTI

+998915511559

farisha007@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматривается значение критического мышления в условиях современной информационной эпохи. Автор анализирует сущность критического мышления, его роль в формировании независимого и ответственного гражданина, а также предлагает конкретные пути развития этого навыка в образовательной и социальной среде.

Annotation. This article explores the importance of critical thinking in the context of today's information-driven world. The author analyzes the essence of critical thinking, its role in shaping independent and responsible citizens, and outlines practical approaches to developing this skill in educational and social settings.

Kalit so'zlar. Tanqidiy fikrlash. mustaqil fikr, axborot tahlili, tafakkur madaniyati, zamonaviy ta'lim, ijtimoiy ong, kognitiv ko'nikmalar

Tanqidiy fikrlash tushunchasi pragmatizm falsafiy harakati vakili Jon Dyui tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib. "reflektiv fikrlash" atamasini ishlatgan. U tanqidiy fikrlashni har qanday e'tiqod yoki bilimning taxminiy shaklini u asos bo'lgan sabablar va u olib keladigan keyingi xulosalar asosida faol, qat'iyatli va sinchkovlik bilan tekshirish deb ta'riflagan.

Tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoning o'z shaxsiy yechimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo'lishi mumkinligini ham tan oladi, lekin o'zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Tanqidiy fikrlash - ijtimoiy bo'lib ham hisoblanadi. Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o'rtoqlashilgandagina o'tkirlashadi. Bahslashuvda, o'qiganimizda, muhokamada ishtirok yetganimizda, e'tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda biz o'z nuqtai-nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'naliishida ishlayotgan pedagoglar o'z mashg'ulotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan foydalanishga, bunda debat va munozaralardan samarali foydalanishga hamda talabalar yozma ishlarini namoyish qilishning turli ko'rinishlaridan foydalanishga intiladilar. Umuman olganda, har qanday tanqidiy fikrlovchi biron-bir jamoa bilan ishlaydi va faqat o'z shaxsini konstruksiyalashga nisbatan anchagina keng ma'nodagi vazifalarni hal qiladi.

Tanqidiy fikrlash uchun siz kognitiv bilimlar, manbalarning ishonchliligi mezonlari, mantiq qonunlari, to'g'ri fikr yuritish usullari va bahs-munozara tamoyillari haqida





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tushunchaga ega bo'lishingiz kerak. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarga quyidagilar kiradi: hodisalarni to'g'ri talqin qilish, muqobil yechimlarni topish, argumentlar yaratish, xatolar va kognitiv buzilishlarni tan olish. Tanqidiy fikrlashning asosiy yo'nalishlari o'z e'tiqodlari uchun sabablar va dalillarni izlash, qiziquvchanlik, o'z pozitsiyasini oqilona himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrga ega insonlar:

- voqealarga biryoqlama qarashdan yiroq bo'ladi,
- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga qodir bo'ladi,
- muammolarga yechim topishda ijobiy yondasha oladi,
- tizimli va izchil fikr yuritadi;
- o'zining noyob qobiliyatları va xususiyatlarını tushunadi va ulardan qanday foydalanishni biladi;
- argumentlar tuzadi va o'z pozitsiyasini boshqalarga qanday yetkazishni biladi;

Bu esa jamiyatda faollikni oshiradi, sog'lom fikrli, ongli qarorlar qabul qila oladigan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tanqidiy fikrlash – bu faqat intellektual qobiliyat emas, balki fuqarolik burchidir.

Tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan shakllanmaydi. Uni tarbiya jarayonida, ta'lim tizimida va kundalik hayotda bosqichma-bosqich rivojlantirib borish lozim. Buning uchun:

- Maktab va oliy o'quv yurtlarida savol-javob, munozara va tahlil asosidagi ta'lim usullariga ko'proq e'tibor qaratish kerak.
- Talabalar mustaqil fikr yuritishga, o'z qarashlarini asoslashga o'rgatilishi lozim.
- Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish orqali inson tafakkurining kengayishiga erishish mumkin.
- Ommaviy axborot vositalari va internetdan foydalanishda tanqidiy yondashuvni shakllantirish zarur.

Tanqidiy fikrlash – bu zamonaviy inson uchun eng muhim ko'nikmalardan biridir. U insonning hayotga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatlari qarashini, har bir harakatini tahlil asosida amalga oshirishini ta'minlaydi. Bugungi globallashuv sharoitida mustaqil, ongli va mas'uliyatlari shaxsni shakllantirish uchun tanqidiy fikrlash madaniyatini keng targ'ib qilish lozim. Zero, fikrlay oladigan, savol bera oladigan va haqiqatni izlay oladigan insonlarga jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydi.

Adabiyotlar

1. Василенко (Колесова) Е. П. Критическое мышление как современная проблема личности // Концепт. 2013. № 12 (декабрь). ART 13259. [Электронный ресурс] – URL: <http://e-koncept.ru/2013/13259.htm>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



2. Калашникова Н.А. Роль критического мышления в формировании инновационной социальной среды // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 7. Философия. 2015. № 4 (30). – С. 127-133.
3. Pulatova F. A. (2023). Technologies for teaching students to think critically //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – Т. 2. – №. 1. – С. 56-61.
4. Pulatova F. A. (2023).Psychology of critical thinking for students //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – Т. 2. – №. 1. – С. 67-73.
5. Пулатова Ф. А. (2022).Талабаларни танқидий фикрлашга ўргатиш ва педагогик ёндашиш //Science and Education. — Т. 3. – №. 6. – С. 822-825.
6. Pulatova F., Karimova N., Yuldasheva S., Shodiyeva S. (2023).Pedagogical Conditions for Students to use Critical Thinking in the Development of Interethnic Communication // Journal of Survey in Fisheries Sciences. -- 10(2S) 4211-4219Vol. 10 No. 2S (2023): Special Issue 2
7. Pulatova F. (2023). Critical thinking is an important skill for every student. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume-22, May - ISSN: 2749-3601
8. Pulatova F. Psychological factors in determining the manifestation of abilities in students. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5 th June, 2023 ISSN: 2835-5326, SJIF 2023:5.499, <http://econferenceseries.com/index.php/srnss>

